

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 333/331.6**

QOBULOVA MAXPUBAXON YAKIBOVNA

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR
SALOHIYATINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.T. Mirzayev

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1. Agroklasterlar faoliyatini rivojlanishi va tarmoq korxonalari klasterlashuvining nazariy asoslari.....	12
1.2. Agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	23
1.3. O‘zbekistonda agroklasterlarni rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimi	36
1-bob bo‘yicha xulosalar	48
II BOB. AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING XOZIRGI XOLATI VA ULARDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISH JARAYONLARIGA OMILLAR TA’SIRINI BAHOLASH	50
2.1. Agroklasterlarda kadrlar salohiyatidan foydalanish tahlili va uning o‘zgarish tendensiyalari	50
2.2. Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish va boshqarishga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	63
2.3. Agroklasterlar faoliyatini boshqarishda kadrlar raqobatbardoshligini baholash	75
2-bob bo‘yicha xulosalar	89
III BOB. AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISH VA FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	91
3.1. Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarini prognozlashtirish.....	91
3.2. Hududiy agroklaster korxonalarida innovatsion va kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	105
3.3. Agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishda ko‘p variantli ssenariylardan foydalanish istiqbollari	117
3-bob bo‘yicha xulosalar	129
Xulosalar.....	131
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	135
Ilovalar	145

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida agroklastlar faoliyatini rivojlantirish jarayonida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda, chunki agrar salohiyatni samarali yuritish to'g'ridan-to'g'ri inson kapitali sifat va salohiyatiga bog'liq. Zamonaviy klasterlashuv tizimida mutaxassis kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini maqsadli rejalashtirish, shuningdek, ularning professional kompetentsiyalarini bozor talablari bilan muvofiqlashtirish orqali agroklastlarda innovatsion g'oyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va texnologik transformatsiyani ta'minlash mumkin. "Keyingi o'n yillikda paxta ishlab chiqarish hajmi va iste'moli global ishlab chiqarishda 5%ga ortib, 2022-2023 yil yakunlari bo'yicha esa 126,5 million toy (bale)ga yetgan. Shu bilan birga, 2031-2032 yillarga kelib taxminan paxta ishlab chiqarish hajmi 1,3 %ga o'sib, 141,3 million toy (bale)ga yetishi prognoz qilinmoqda"¹. Ilmiy tadqiqotlar shuni anglatadiki, kadrlar salohiyatini tizimli ravishda boshqarish klaster ishtirokchilari o'rtasidagi funksional hamkorlikni mustahkamlash, mehnat samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, agroklastlar doirasida kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlari nafaqat klaster samaradorligi, balki uning global raqobatbardoshligini ta'minlashda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Jahon miqyosida agroklastlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar, eng avvalo, inson resurslari sifatini yuksaltirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish, agroiqtisodiy klasterlarda malakali kadrlar talabini aniqlash, ta'lim va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda kompetensiya markazlarini yaratish, shuningdek, kasbiy malaka tizimi hamda mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab olmoqda. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda raqamli boshqaruv platformalari orqali kadrlar salohiyatini monitoring qilish, tahlil

¹ https://www.depts.ttu.edu/aaec/icac/pubs/cotton/global_cotton_baselines/Final_Baseline_Mar2022.pdf

etish va strategik boshqarish tizimlarini joriy etish masalalari tadqiqot markazlarining diqqat markazida turibdi. Zamonaviy innovatsion talablar asosida kadrlarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini moslashtirish, shuningdek, ularning loyihalash asosidagi boshqaruv, agrotexnologiyalar hamda iqtisodiy tahlil sohalaridagi malakasini oshirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy izlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu orqali agroklaster subyektlari o'rtasidagi institutsional aloqalarni mustahkamlash, mehnat unumdorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi kadrlar siyosati shakllantiriladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida qishloq xo'jaligini, jumladan, agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, sohada kadrlar raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, agroklaster mahsulotlarini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, agroklasterlar faoliyatining bozor tarmog'idagi sohasi bo'lmish strategik menejment va marketingni o'z ichiga olgan boshqaruvning kreativ usullarini qo'llash, sohada kadrlar salohiyatidan maqsadli foydalanish asosida ko'p qiymatli agroklaster mahsulotlari samarasini o'zlashtirish kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan "...qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash hamda dehqon va fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga barcha subsidiyalarni yagona «Agrosubsidiya» platformasi orqali «bir qadam» tamoyili asosida taqdim etish»² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda agroklasterlar faoliyatini boshqarishda mavjud resurs komponentlardan maqsadli foydalanish, agroklasterlar faoliyatining hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi faoliyat samaradorligini oshirish, sohada kadrlar raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish choralarini ko'rish bilan bog'liq mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 20-iyundagi PQ-227-son “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 28-iyuldagi PQ-304-son “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-dekabrdagi 747-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda shu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Agroklastlar faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimini takomillashtirish masalalarini xorijiy mamlakatlarda M.Porter, I.Mazur, I.Shapiro, L.Muravskiy, S.Villiams, M.Dodgson, D.Gann, A.Salter, K.Donoxuye, E.Katok, S.Leider va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan³.

³Портер М. Конкуренция / Майкл Э. Портер; пер. с англ. – М.: Вильямс, 2006. – 256 с.; Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством: учеб. пособие / Мазур И.И., Yasnolob I.A., Protsiuk N.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. Annals of agrarian science 14 (2016) 191-195.; Murawski, L. Gamification in human resource management—Status quo and quo vadis // German Journal of Human Resource Management. 2021. Том 35. № 3. С.: 337-355.; Villiams, C.C. Beyond the formal/informal jobs divide: evaluating the prevalence of hybrid ‘under-declared’ employment in South-Eastern Europe // The International Journal of Human Resource Management. 2010. Том 21. № 14. С.: 2529-2546.; Dodgson M., Gann D.M., Salter A. The Management of technological innovation: Strategy and Practice. New York: Oxford Univ. Press, 2008. 373 p.;

Agroklasterlar faoliyatini boshqarish jarayonlari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodchi olimlari qatoriga Ye.B.Falkovich, D.A.Kotlyarov, A.Chernyayev, D.Serdobinsev, O.A.Anichkina, O.A.Frolova, Ye.N.Kolomoyes, V.V.Travii, V.A.Dyatlov, I.I.Isachenko, N.R.Balinskaya, S.A.Shapiro, Ye.I.Lovchikova, Yu.O.Derevyanko, V.I.Truxachev va boshqalarni kiritish mumkin⁴.

O'zbekistonda agroklasterlar faoliyatini boshqarish jarayonlari bo'yicha A.Ortiqov, D.N.Saidova, I.B.Rustamova, I.Yu.Umarov, M.Karimov, Sh.A.Tursunov, M.Turg'unov, A.H.Berdiyev, G.Q.Abdurahmanova, Sh.A.Allayorov, B.O.Mo'minov, X.Urdushev, G.Q.Abdurahmanova, Sh.G.Gaibnazarov, N.T.Shoyusupova, S.Eshanqulov, M.Mavlyanov va boshqa olimlar ilmiy-tadqiqot olib borganlar⁵. Ammo agroklasterlar faoliyatini

Donohuye K., Katok E., Leider S. The handbook of behavioral operations. New York: John Wiley & Sons, Inc., 2019. 664 p. doi: 10.1002/9781119138341.

⁴Фалкович Е.Б., Котляров Д.А. Аграрный кластер как инновационное направление интеграции в АПК стран таможенного союза и Единого экономического пространства // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. 2014. № 1 (49). С. 340-346.; Черняев А., Сердобинцев Д. Организационно-экономический механизм формирования агропромышленных кластеров в Поволжье // АПК: экономика и управление. 2012. № 2. С. 3-9.; Аничкина О.А. Принципы формирования кластеров малого и среднего бизнеса в АПК // Проблемы современной экономики: материалы международной научной конференции. Челябинск, 2012.; Фролова О.А. Формирование и развитие кластеров в региональном АПК // Региональная экономика: теория и практика. 2011. № 36 (219). С. 38-43.; Колomoец Е. Н. Управление кадровым потенциалом организации [электронный ресурс]. URL: <http://www.mail.ru/events/sfiro/articles/sec5/kolomoec.doc> (дата обращения 27.02.2016).; Травии В. В., Дятлов В. А. Основы кадрового менеджмента. М.: ИНФРА-М, 2009. 170 с.; Исаченко И. И. Управление человеческими ресурсами: учеб. пособие. М.: МГУП имени Ивана Федорова, 2013. 206 с.; Балынская Н.Р. Управление персоналом предприятия на основе механизмов стимулирования репродуктивного труда: монография. СПб.: Инфо-да, 2014. - 144 с.; Колomoец Е.Н. Управление кадровым потенциалом организации [электронный ресурс]. URL:<http://www.mail.ru/events/sfiro/articles/sec5/kolomoec.doc> (дата обращения 27.02.2016); Шапиро С.А. Основы управления персоналом в современных организациях: уникальный подход, обеспечивающий эффективную работу компании. М.: ГроссМедиа, 2007. 248 с.

⁵Абдурахим Ортиков. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). - Т.: ТДИУ, 2014 й, Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. Тошкент 2014. 45-52 бет.; Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. «Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги». –Т.: Ўқув қўлланма. «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси» босмахонаси нашриёти, 2016. 12-б.; Умаров И.Ю. “Озиқ-овқат саноатида тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш истиқболлари”. Монография. – Т.: Фан ва технологиялар, 2014. –23 б.; Каримов М.А. “Озиқ-овқат саноати корхоналарида бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш” / Монография. - Андижан: “STEP BY STEP PRINT” МЧЖ, 2021.- 100 б.; М.Turg'unov. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Andijon.:2023. – 120 б.; А.Х.Бердиев. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда кластер тизимининг истиқболлари. Иқтисодиёт ва молия. 2019.12(132). 19-21-бетлар.; G.Q. Abdurahmanova [Impact of demographic processes on the labor market of Uzbekistan](#). International Journal of Recent Technology and Engineering 8 (3 S), 572-576.; Sh.A. Allayorov [Features and ways to improve the current model of agricultural policy of Uzbekistan](#). International journal of research in social sciences 7 (4), 212-223.; Мўминов Б.О. Агрокластерларнинг жорий этилиши – ихтисослаштириш ва жойлаштиришнинг муҳим омилidir. «SCIENTIFIC

rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar yetarlicha o‘rganilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agroklastar, dehqon va fermer xo‘jaliklarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda fanning ta’lim va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agroklastarlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agroklastarlar faoliyatini rivojlanishi va tarmoq korxonalari klasterlashuvining nazariy asoslarini o‘rganish;

agroklastarlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish xususiyatlari va faoliyatni rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimini ilmiy tadqiq etish;

agroklastarlarda kadrlar salohiyatidan foydalanish va uning o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilish;

agroklastarlar faoliyatini boshqarishda kadrlar raqobatbardoshligini baholash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida agroklastarlar faoliyatini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarini modellashtirish va prognozlashtirish;

hududiy agroklastar korxonalarida innovatsion va kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;

agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarishda ko'p variantli ssenariylardan foydalanish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyati va uni boshqarish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyati va boshqarish jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, sintez, taqqoslash, statistik tahlil, anketa so'rovlari o'tkazish va tahlil etish, SWOT-tahlil, ekspert baholash va ekonometrik modellashtirish kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

agroklasterlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish jarayonining tasnifi milliy iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, mehnat bozorida ish haqini tariflash tizimi (10-15 foizlik ustamalar), hududiy bandlik va kasbiy tayyorlash dasturlari (malaka oshirish kurslari bilan qamrab olingan xodimlarning 75-80 foizi), tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlari hamda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarining integratsiyalashuvini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

agroklasterlar faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlari asosida yuqori samarali ($4,5 \leq K_{Syu} \leq 5$), o'rtacha samarali ($3,5 \leq K_{So} \leq 4,4$), past samarali ($2,6 \leq K_{Sp} \leq 3,4$) va samarasiz ($1 \leq K_{Ss} \leq 2,5$) ko'rsatkichlarga guruhlash orqali baholash aniqligini oshirish asoslangan;

agroklaster korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, qishloq xo'jaligi klaster korxonalari va kadrlar resurslari o'rtasida ta'sirchan o'zaro aloqalarni ta'minlovchi institutsional vositalar tarkibiga 1 xodimga to'g'ri keluvchi mehnat unumdorligini yiliga 8-10% oshirishdan iborat regulyativ hamda rag'batlantiruvchi vositalar majmuining kiritilishi asoslangan;

agroklastarlarda band bo'lgan ishchilar soni, ularning o'rtacha ish staji, boshqaruv xarajatlari va mehnat unumdorligi hajmining o'zgarishi hisobiga agroklastlar faoliyatidan olingan foyda hajmining 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tabiiy resurslar va agrosanoat majmuasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hududiy tizim konsentratsiyasi asosidagi agroklastlar ijtimoiy-iqtisodiy hamda hududiy tizimining tarkibi asoslangan;

agroklastlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kadrlar salohiyatini boshqarishga ta'sir etuvchi tarmoq tarkibidagi resurs komponentlar tahlili amalga oshirilgan hamda sohadagi o'zgarish tendensiyalari baholangan;

Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi "Sahovat teks" MChJ paxta-to'qimachilik klasteri va Baliqchi tumanidagi "Tetratex" MCHJ paxta-to'qimachilik klasteri faoliyati va ushbu klasterlardagi kadrlar salohiyati baholangan;

agroklastlar faoliyatining kadrlar salohiyatini boshqarish bo'yicha SWOT tahlili amalga oshirilgan va Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida agroklast korxonalari orasida faoliyatni tashkil etish hamda kadrlar salohiyatini boshqarish yo'nalishidagi holatni o'rganish bo'yicha ham anketa so'rovnomasi o'tkazilgan;

innovatsion iqtisodiy rivojlanish uchun agroklast korxonalari kadrlarini kasbiy tayyorlash tizimini strategiyalash konsepsiyasi taklif etilgan va amaliyotda foydalanish yo'llari asoslangan;

agroklast korxonalarining asosiy biznes strategiyalarini kadrlar strategiyasi bilan muvofiqlashtirish matritsasi ishlab chiqilgan va uni amalga oshirish yo'llari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi davomida foydalanilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar va yetakchi iqtisodchi olimlarning agroklastlar faoliyatini samarali tashkil etish va unda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy qarashlari tahlil qilinganligi, ma'lumotlar bazasi milliy va samarali faoliyat olib borayotgan

korxonalarning ishonchli ma'lumotlariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlariga asoslanganligi hamda natijalarni O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi faoliyati tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining amaliy natijalari va uning ilmiy ahamiyati agrar sohada mahsulotlar ishlab chiqarishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish, klaster siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishni va ularda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmiga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini agroklastlarlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda, ushbu agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini yana ham rivojlantirishda taklif etilayotgan mexanizmnini o'ziga xos jihatlarini o'rganish, agroklastlarlarning integratsiyalashgan tarmoq va sohalarida o'ziga xos boshqaruv strategiyalarini joriy qilish, ularda kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy tizimini shakllantirish mumkinligi hamda bu tavsiyalardan oliy ta'lim tizimida "Menejment", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish" va "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanlarini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agroklastlarlar faoliyatini rivojlantirishda kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

agroklastlarlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish jarayonining tasnifi milliy iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, mehnat bozorida ish haqini tariflash tizimi (10-15 foizlik ustamalar), hududiy bandlik va kasbiy tayyorlash dasturlari (malaka oshirish kurslari bilan qamrab olingan xodimlarning 75-80 foizi), tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlari hamda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarining integratsiyalashuvini ta'minlash asosida takomillashtirilishi bo'yicha ilmiy taklifi O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan

(O'zto'qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldagi 03/25-1738-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilik amaliy faoliyatga tatbiq etilgach agroklastlarlar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish tizimining samaradorligi darajasi 10-12 foizga ortgan;

agroklastlarlar faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlari asosida yuqori samarali ($4,5 \leq K_{Syu} \leq 5$), o'rtacha samarali ($3,5 \leq K_{So} \leq 4,4$), past samarali ($2,6 \leq K_{Sp} \leq 3,4$) va samarasiz ($1 \leq K_{Ss} \leq 2,5$) ko'rsatkichlarga guruhlash orqali baholash aniqligini oshirish taklifi O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zto'qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldagi 03/25-1738-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilik amaliy faoliyatga tatbiq etilgach agroklastlarlar faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlarini 9 ta guruhga tartiblash asosida kadrlar salohiyatini aniqlash darajasi aniqligi 11-13 foizga ortgan;

agroklastlar korxonalarida kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, qishloq xo'jaligi klaster korxonalar va kadrlar resurslari o'rtasida ta'sirchan o'zaro aloqalarni ta'minlovchi institutsional vositalar tarkibiga 1 xodimga to'g'ri keluvchi mehnat unumdorligini yiliga 8-10% oshirishdan iborat regulyativ hamda rag'batlantiruvchi vositalar majmuining kiritilishi taklifi O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zto'qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldagi 03/25-1738-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik amaliyotga joriy etilgach, agroklastlarlar va ular tarkibidagi korxonalar faoliyatida kadrlar salohiyatini boshqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'lida zamonaviy boshqaruv modellarini hamda samarali mexanizmlarni qo'llash samaradorligi ortgan;

agroklastlarlarda band bo'lgan ishchilar soni, ularning o'rtacha ish staji, boshqaruv xarajatlari va mehnat unumdorligi hajmining o'zgarishi hisobiga agroklastlarlar faoliyatidan olingan foyda hajmining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi faoliyatiga

joriy etilgan (O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 17-iyuldagi 03/25-1738-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilik amaliy faoliyatga tatbiq etilgach “Bek cluster” MChJ va “Saxovat teks” agroklastlarida kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish imkoniyati kengaydi hamda amaliyotda foydalanish mumkin bo‘lgan qisqa muddatli davr uchun tarmoqning maqsadli ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari ifodalangan 14 ta ilmiy ish, jumladan, ularning 6 tasi Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish jurnallarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan ishlardir.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Ularning 6 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamlarida, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 3 tasi xorijiy, 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.